

«BIZ KIM, MULKI TURON, AMIRI TURKISTONMIZ!»

10 • 2025-yil 27-mart • № 13

Postda
Ha noqtiy

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

«BIZ KIM, MULKI TURON, AMIRI TURKISTONMIZ!»

(9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun)

Dunyoda millatni millat, elatni elat sifatida tanitgan tarixiy shaxslar sanoqildir. Ana shunday buyuk insonlardan biri ulug' bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur bo'lib, uning ona Vatanimiz oldidagi beqiyos xizmatlari tahsinga loyiq.

Amir Temur davlatida ichki va tashqi siyosat

Sohibqiron mohir sarkarda, diplomat va yetuk davlat arbobi bo'lganligi bois, milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. U turk-mo'g'ul an'analarga amal qilgan holda, o'z davlati hududini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqardi. Ulug' hukmdor Movarounnahrda tashqaridagi yerlarini to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga

nati dovrug'ini dunyoga mashhur qildi. Sohibqiron Yildirim Boyazid ustidan g'alaba qozonganidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yib, savdogarlarni va mol almashishni taklif qildi. Shunday qilib, u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarini o'rnatish hamda savdo va karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini Yevropaga ham tarqata olgan.

Kuch – adolatdadir



ri, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi to'g'risida fikr yuritilgan.

Amir Temur ulug' saltanat barpo etgan, davlatning ichki siyosati – harbiy san'atni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib borgan. Mo'g'ul istilosi asoratlarini bartaraf etishga erishgan. Xo'jalikni oyoqqa turg'azishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, savdo-so'tiq, hunarmandchilikni rivojlantirgan. Aholi manfaatlarini himoya qilgan, ilm-fan, mada-

Amir Temur davlatida ichki va tashqi siyosat

Sohibqiron mohir sarkarda, diplomat va yetuk davlat arbobi bo'lganligi bois, milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. U turk-mo'g'ul an'analarga amal qilgan holda, o'z davlati hududini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqardi. Ulug' hukmdor Movarounnahrda tashqaridagi yerlarini to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om qiladi. Bu masalaning e'tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan in'om qilingan yerlar ichki mustaqillikka ega bo'lsa-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo'ysunardi.

Amir Temur davlatining eng ibratli tomoni shunda ediki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini to'g'ri idrok etdi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rtta vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq ishlarni bajarishgan.

Bu davrda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol, vaqf va jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olgan, vaqf yerlari masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, soliq to'lashdan ozod

qilingan. Asosiy daromad solig'i – xiroj bo'lib, u olinadigan foydaning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. «Temur tuzuklari»da yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, yerni o'zlashtirganligining uchinchi yili qonun doirasida xiroj solig'i to'lagan. Bundan tashqari, ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari ham mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga muvofiq ravishda yig'ilgan.

Mohir sarkarda chet el davlatlari bilan savdo aloqalarini keng yo'lga qo'ydi. Ushbu davrning shart-sharoitlariga ko'ra, tashqi siyosatda qat'iy, faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini dunyoga mashhur qildi. Sohibqiron Yildirim Boyazid ustidan g'alaba qozonganidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yib, savdogarlarni va mol almashishni taklif qildi. Shunday qilib, u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarini o'rnatish hamda savdo va karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini Yevropaga ham tarqata olgan.

Kuch – adolatdadir

Amir Temur davlatida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror rivojlangan. Sohibqiron fan va madaniyat jonkuyari sifatida shuhrat qozongan. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamolalar bilan suhbatda bo'lib, qalbi toza kishilarga talpindi. Bu davrda ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'ta rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarilgan edi. Uning «Kuch – adolatdadir» degan so'zlari davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan darak berardi.

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor bergan. Uning harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokor va me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar barpo etildi. Hatto g'ariblarga oziq-ovqat beradigan, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurildi. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar barpo qilingan. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar ham aynan shu yerda bunyod etilgan. Sohibqiron Samarqand atrofida go'zal bog'lar ham yaratadi. Ona yurti Keshga katta e'tibor bilan qaraydi, Shahrisabzda Oqsaroy me'moriy obidasi, jome' masjid va madrasalar barpo ettiradi.

Sohibqironning ulug' saxovatning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrining obodonchiligiga katta ahamiyat beradi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi munosabatni ham yaxshi yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratadi.

Amir Temur davrida yangi shaharlar bunyod etilganini, savdo va hunarmandchilik ham keng rivojlanganligini aytib o'tish lozim. Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib boradi. Ayniqsa, bu davrda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, savdo yo'llarining tinchligini ham shaxsan uning o'zi nazorat qilib, karvonlarning xavfsizligini ta'minlagani ayni haqiqatdir.

«Temur tuzuklari»ning ahamiyati

«Temur tuzuklari» alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatlarni boshqarishi haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Undan ko'plab sharq hukmdorlari faoliyatlari davomida foydalanib, yuqori baho berishgan.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi hamda markazlashgan davlat tuzishi bayon qilingan. Bundan tashqari, qo'shni mamlakatlar Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustidan g'alaba qozonishi, Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari yoritib o'tilgan.

Asarning ikkinchi qismi esa sohibqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari hamda vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi to'g'risida fikr yuritilgan.

Amir Temur ulug' saltanat barpo etgan, davlatning ichki siyosati – harbiy san'atni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib borgan. Mo'g'ul istilosi asoratlarini bartaraf etishga erishgan. Xo'jalikni oyoqqa turg'azishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirgan. Aholi manfaatlarini himoya qilgan, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan taraqqiy ettirgan. Obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda olib borgan.

Istiqlol haqiqati

Sobiq ittifoq mafkurasi sohibqiron faoliyatiga salbiy munosabatda bo'lib, o'sha davr adabiyotlarida qoralab kelindi. Lekin taqiqlarga qaramasdan, ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida to'g'ri fikrlar ham bildirildi. Bu jihatdan 1968-yili akademik Ibrohim Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» risolasining nashr etilishi muhim voqea bo'ldi. Mazkur risola sohibqiron shaxsigacha bir yoqlama qarashlarga chek qo'yish maqsadida yozilgan ilmiy asar edi. Ammo bu asar qattiq tanqidga uchradi.

O'zbekistonning istiqlolni qo'lga kiritishi tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. Shu bois so'nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar va kitoblar nashr qilindi. Ayniqsa, Bo'riboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir. 1996-yil yurtimizda «Amir Temur yili» deb e'lon qilinishi va bu sananing dunyo miqyosida keng nishonlanishi sohibqiron nomi oqlanib, uning buyuk xizmatlari e'tirof etilganligining yorqin dalilidir. Ulug' vatandoshimizga atab O'zbekistonning 3 ta shahrida sohibqironning haykali o'rnatildi. Hatto Yevropaning ko'plab davlatlari qatori, Fransiyada ham Amir Temurni o'z xaloskori sifatida qadrlab, unga oltin suvi yuritilgan haykalcha o'rnatilgani uning shaxsiga bildirilgan hurmat-e'tiborning namunasidir.

Mixli SAFAROV,

o'z muxbirimiz.

@manaviyat_va_marifat_darsi

«БИЗ КИМ, МУЛКИ ТУРОН, АМИРИ ТУРКИСТОНМИЗ!»

Амир Темур давлатида ички ва ташқи сиёсат

Соҳибқирон моҳир саркарда, дипломат ва етук давлат арбоби бўлганлиги боис, миллий юксалиш ва инсонпарварлик руҳи билан суғорилган улкан марказлашган давлат тузишга муваффақ бўлди. У турк-мўғул анъаналарига амал қилган ҳолда, ўз давлати ҳудудини суюрғол (улус) тариқасида инъом қилиш йўли билан бошқарди. Улуғ ҳукмдор Мовароуннаҳрдан ташқаридаги ерларини тўрт улусга бўлиб, фарзандларига инъом қилади. Бу масаланинг эътиборли томони шундаки, гарчи соҳибқирон томонидан инъом қилинган ерлар ички мустақилликка эга бўлсада, лекин амалда батамом марказий ҳокимиятга бўйсунарди.

Амир Темур давлатининг энг ибратли томони шунда эдики, соҳибқирон кичик бир вилоят доирасида тарбия топган бўлсада, давлат мафқурасининг бошқарув таянчи кучли ҳокимият эканлигини тўғри идрок этди ва давлат, салтанат ишларини юзага чиқаришда камчиликка йўл қўймайдиган вазирларни танлашга ҳаракат қилди. Амир Темур ҳукмронлик қилган даврда давлатнинг марказий маъмурияти бошида девонбеги, аркбеги ва тўртта вазир турган. Вазирлар солиқлар йиғиш, мерос ишлари, аскарлар маоши ва уларни озиқ-овқат билан таъминлаш, сарой харажатлари билан боғлиқ ишларни бажаришган.

Бу даврда ерга эгаликнинг баъзи турлари мавжуд бўлиб, улар суюрғол, вақф ва жамоа ерлари эди. Хусусий ер эгалари тархон унвонини олган, вақф ерлари масжид ва мадрасаларга қарашли ерлар бўлиб, солиқ тўлашдан озод қилинган. Асосий даромад солиғи – хирож бўлиб, у олинадиган фойданинг учдан бир қисмига тенг бўлган. «Темур тузуклари»да ёзилишича, кимки бирон саҳрони обод қилса ёки ер ости сувларини тортиб оладиган иншоот қурса, ё бирон боғ кўкартирса, ёхуд бирон ташландиқ ерни обод қилса, ерни ўзлаштирганлигининг учинчи йили қонун доирасида хирож солиғи тўлаган. Бундан ташқари, ушр, мол, сувлоқ каби солиқ турлари ҳам мавжуд бўлиб, улар йиллар давомида амал қилинган тартиб-қоидаларга мувофиқ равишда йиғилган.

Моҳир саркарда чет эл давлатлари билан савдо алоқаларини кенг йўлга қўйди. Ушбу даврнинг шарт-шароитларига кўра, ташқи сиёсатда қатъий, фаол ҳаракат қилиб, ўз салтанати довуғини дунёга машҳур қилди. Соҳибқирон Йилдирим Боязид устидан ғалаба қозонганидан сўнг Франция, Англия, Генуя ва Византия билан алоқаларни йўлга қўйиб, савдогарларни ва мол алмашишни таклиф қилди. Шундай қилиб, у Европа давлатлари билан яқин қўшничилик алоқаларини ўрнатиш ҳамда савдо ва қарвон йўлларини ривожлантириш нияти борлигини кўрсатиб, ўз давлати шуҳратини Европага ҳам тарқата олган.

Куч – адолатдадир

Амир Темур давлатида диний илмлар ва дунёвий фанлар барқарор ривожланган. Соҳибқирон фан ва маданият жонкуяри сифатида шуҳрат қозонган. Соҳибқирон доимо илм аҳли ва уламолар билан суҳбатда бўлиб, қалби тоза кишиларга талпинди. Бу даврда илм-фан, меъморчилик, санъат соҳалари ўта ривожланиб, юксак маънавий бойлик даражасига кўтарилган эди. Унинг «Куч – адолатдадир» деган сўзлари давлатни бошқаришдаги юксак қобилиятидан дарак берарди.

Соҳибқирон мамлакат ободончилигига ҳам жуда катта эътибор берган. Унинг ҳаракати билан Самарқандда дунёнинг йирик шаҳарларидан келтирилган бинокор ва меъморлар томонидан масжидлар, мадрасалар, мақбаралар барпо этилди. Ҳатто ғарибларга озик-овқат берадиган, йўловчилар кўниб ўтадиган махсус жойлар ҳам қурилди. Шаҳар атрофи мустаҳкам деворлар билан ўралиб, Оҳанин, Шайхзода, Чорсу, Коризгоҳ, Сўзангарон ва Феруза каби номлар билан дарвозалар барпо қилинган. Темурнинг қароргоҳи сифатида ноёб маъмурий бино Кўксарой ва Бўстонсаройлар ҳам айнан шу ерда бунёд этилган. Соҳибқирон Самарқанд атрофида гўзал боғлар ҳам яратади. Она юрти Кешга катта эътибор билан қарайди, Шаҳрисабзда Оқсарой меъморий обидаси, жомеъ масжид ва мадрасалар барпо эттиради.

Соҳибқирондаги улуғ саховатнинг яна бир томони шунда эдики, у бепоён даштлар билан қамраб олинган Туркистон шаҳрининг ободончилигига катта аҳамият беради. Жумладан, Хожа Аҳмад Яссавий мақбарасини қуриш билан бу ерда нафақат ободончилик, балки кўчманчи ва ўтроқ аҳоли ўртасидаги муносабатни ҳам яхши йўлга қўйишга алоҳида эътибор қаратади.

Амир Темур даврида янги шаҳарлар бунёд этилганини, савдо ва ҳунармандчилик ҳам кенг ривожланганлигини айтиб ўтиш лозим. Бухоро, Шаҳрисабз, Тошкент каби шаҳарлар савдо ва ҳунармандчилик марказлари сифатида ривожланиб боради. Айниқса, бу даврда ҳунармандчиликнинг кенг ривожланиши шаҳарларда ҳунармандчилик маҳаллалари, савдо расталари сони ортиб боришида муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, савдо йўлларининг тинчлигини ҳам шахсан унинг ўзи назорат қилиб, қарвонларнинг хавфсизлигини таъминлагани айни ҳақиқатдир.

«Темур тузуклари»нинг аҳамияти

«Темур тузуклари» алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, унда соҳибқироннинг давлат тузилиши ва мамлакатларни бошқариши ҳақидаги қимматли маълумотлар ўрин олган. Ундан кўплаб шарқ ҳукмдорлари фаолиятлари давомида фойдаланиб, юқори баҳо беришган.

Тузукларнинг биринчи қисмида Амир Темурнинг етти ёшидан то вафотига қадар кечган ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти ҳамда унинг Мовароуннаҳрда марказий ҳокимиятни қўлга киритиши, ижтимоий

тарқоқликка барҳам бериши ҳамда марказлашган давлат тузиши баён қилинган. Бундан ташқари, қўшни мамлакатлар Эрон ва Афғонистонни ўз тасарруфига киритиши, Олтин Ўрда хони Тўхтамишхон устидан ғалаба қозониши, Озарбайжон, Туркия ва Ҳиндистонга қилган ҳарбий юришлари ёритиб ўтилган.

Асарнинг иккинчи қисми эса соҳибқироннинг номидан айтилган ва унинг тожу тахт ворисларига аталган ўзига хос васият ва панду насихатларидан иборат. Унда давлатни идора қилишда кимларга таяниш, тожу тахт эгалари ҳамда вазир ва қўшин бошлиқларининг бурч ва вазифалари, амирлар ва бошқа мансабдорларнинг тожу тахт олдида кўрсатган алоҳида хизматларини тақдирлаш тартиби тўғрисида фикр юритилган.

Амир Темур улуғ салтанат барпо этган, давлатнинг ички сиёсати – ҳарбий санъатни замон талаби асосида тобора такомиллаштириб борган. Мўғул истилоси асоратларини бартараф этишга эришган. Хўжаликни оёққа турғазига муваффақ бўлган. Шунингдек, савдо-сотик, хунармандчиликни ривожлантирган. Аҳоли манфаатларини ҳимоя қилган, илм-фан, маданият, меъморчиликни тубдан тараққий эттирган. Ободонлаштириш ишларини кенг қўламда олиб борган.

Истиқлол ҳақиқати

Собиқ иттифоқ мафкураси соҳибқирон фаолиятига салбий муносабатда бўлиб, ўша давр адабиётларида қоралаб келинди. Лекин тақиқларга қарамасдан, айрим илмий асарларда Темур ҳақида тўғри фикрлар ҳам билдирилди. Бу жиҳатдан 1968 йили академик Иброҳим Мўминовнинг «Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли» рисоласининг нашр этилиши муҳим воқеа бўлди. Мазкур рисола соҳибқирон шахсига бир ёқлама қарашларга чек қўйиш мақсадида ёзилган илмий асар эди. Аммо бу асар қаттиқ танқидга учради.

Ўзбекистоннинг истиқлолни қўлга киритиши тарихимизга тўғри муносабатда бўлиш имконини яратди. Шу боис сўнгги йилларда Амир Темур ва унинг даврини ўрганишга бағишланган қатор манбалар ва китоблар нашр қилинди. Айниқса, Бўрибой Аҳмедовнинг Амир Темур ҳақидаги катта роман-хроникаси юқоридаги фикримизнинг тасдиғидир. 1996 йил юртимизда «Амир Темур йили» деб эълон қилиниши ва бу сананинг дунё миқёсида кенг нишонланиши соҳибқирон номи оқланиб, унинг буюк хизматлари эътироф этилганлигининг ёрқин далилидир. Улуғ ватандошимизга атаб Ўзбекистоннинг 3 та шахрида соҳибқироннинг ҳайкали ўрнатилди. Ҳатто Европанинг кўплаб давлатлари қатори, Францияда ҳам Амир Темурни ўз халоскори сифатида қадрлаб, унга олтин суви юритилган ҳайкалча ўрнатилгани унинг шахсига билдирилган хурмат-эътиборнинг намунаси.

Михли САФАРОВ,

ўз мухбиримиз.

@manaviyat_va_marifat_darsi